




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “NAZAR”- OBSERVATION

Gulchekhra Nigmatovna Navruzova

Doctor of sciences philosophy, professor

Bukhara engineering technological institute

Bukhara, Uzbekistan

E-mail: premium.progress@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: gaze, observation, eye, heart, heart eye, conscious gaze, ignorant gaze, positive, negative.

Received: 29.07.24

Accepted: 31.07.24

Published: 02.08.24

Abstract: The Sufi philosophical article analyzes the content and essence of the concept of "nazar" in the principle of "Nazar bar Kadam" – "Watch your step" in the Naqshbandi doctrine. This concept was compared with the rubles of Najmuddin Kubro, and the positive and negative effects of Nazar on the heart were justified on the basis of sources.

NAZAR TUSHUNCHASINING TASAVVUFİY – FALSAFIY TAHLİLİ

Gulchekhra Nigmatovna Navro‘zova

professor, falsafa fanlari doktori

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Buxoro, O‘zbekiston

E-mail: premium.progress@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Nazar, diyda, ko‘z, qalb, qalb ko‘zi, hushyor nazar, g‘ofil nazar, ijobiy, salbiy.

Annotatsiya: Maqolada Naqshbandiya ta’limotidagi “Nazar bar qadam” – “Qadamga nazar” tamoyilidagi “nazar” tushunchasining mazmun-mohiyati tahlil etilgan. Bu tushuncha Najmuddin Kubro ruboilyari bilan qiyoslangan va nazarning qalbga ijobiy hamda salbiy ta’siri manbalar asosida dalillangan.

СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЕ “НАЗАР”- НАБЛЮДЕНИЕ

Гулчекхра Нигматовна Наврузова

Профессор, доктор философских наук

Бухарского инженерно-технологического института

Бухара, Узбекистан

E-mail: premium.progress@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: взгляд, наблюдение, глаз, сердце, сердечный глаз, осознанный взгляд, невежественный взгляд, позитив, негатив.

Аннотация: В статье суфийско-философски анализируется содержание и сущность понятия "назар" в принципе "Назар бар кадам" – "Наблюдение за шагом" в учении Накшбандии. Эта понятие была сопоставлена с рубоями Наджмиддина Кубро, положительное и отрицательное воздействие назара на сердце было обоснована на основе источников.

KIRISH

Insonning bilish jarayonida ko‘rish quvvatining ahamyati kattadir. Ko‘z insonga berilgan eng oliy ne’matlardan biri. Bu mo‘jiza tufayli inson borliqni ko‘radi. Ko‘rish quvvati haqida tasavvuf falsafasida keng mushohada yuritilgan. Ko‘rishning zohiriy – tashqi va botiniy ichki tomoniga e’tibor qaratilgan. Bu ta’limot asosida ko‘rish quvvati qalb holatiga bevosita bog‘langan. Pok, go‘zal narsa va hodisalarga qarash qalbning holatiga ijobiy ta’sir etsa, iflos, xunuk narsa va hodisalar quvvati qalbni o‘ldiradi. Qalb sog‘lomligi va pokligi ko‘zning qaerga va kimga tushishiga bog‘liq.

Ko‘z quvvatini asrash, nojoiz kishiga qaramaslik, noloyiq joyga boqmaslik qalb bilan ko‘zni poklab, qalb ko‘zining ochilishiga imkon beradi. Bunday insonlar nazari kimga va qaerga tushsa, u yerga xayru barakot, ezgulik ne’matlari yog‘iladi. Naqshbandiya ta’limotida “Nazar bar qadam” – “Qadamga nazar” tamoyili insonni ko‘z quvvatini to‘g‘ri boshqarishga yordam beradi. Bu ta’limotdagi nazar tushunchasining falsafiy tahlili barkamol insonni tarbiyalashning asosi bo‘la oladi.

ASOSIY QISM

Insonni kamoloti uchun ko‘rish quvvatining ahamyati kattadir. Inson falsafasida bu masalaga doir turlicha qarashlar mavjud [4]. Naqshbandiya ta’limotiga doir manbalar [2,3,5,7,8,27-30] va tadqiqotlarda [9,10,15-26] 11 tamoyil haqida ma’lumot berilgan. “Nazar bar qadam” - “Qadamga nazar” tamoyilining Yusuf Hamadoniy tomonidan o‘git sifatida Abdulxoliq G‘ijduvoniyya aytganligi [26:22-25], Xojagon ta’limotida bu tamoyil sifatida kiritilganligi [10], Bahouddin Naqshband uni rivojlantirib, Naqshbandiya tamoyili sifatda qabul qilinganligi tadqiq etilgan [22:66,70,78]. Bahouddin Naqshbandning ruboiylarida ham nazarga oid g‘oyalari mavjud [1,6]. Naqshbandiya ta’limotidagi nazar tushunchasi Kubroviya ta’limotining asoschisi Najmiddin Kubro ruboiylaridagi [9,11-13] g‘oyalari bilan uyg‘un ekanligi ularning tahlilidan ma’lum bo‘ladi. Nazar tushunchasining tahlilida qiyoslash, analiz va sintez uslublari asosida tadqiqot olib borildi. Ruboilarning tahlilida ularni anglash tushunish va tushuntirish uchun germenevtika uslubiga asoslanildi.

Yusuf Hamadoniy asoslagan va keyinchalik Xojagon-naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyiliga aylangan rashhalardan biri “Nazar bar qadam” bo‘lib, uning mazmuni shundaki, kamolot sari intilayotgan kishining nazari doimo qo‘yayotgan qadamiga, maqsad-muddaosiga qaratilgan bo‘lishi lozim, nazar noloyiq joylarga tushmasligi zarur. “Nazar bar qadam” rashhasidagi “nazar” so‘zining ma’nosи ko‘z quvvati, nigoh, qarash, ko‘rish, aqlu hush, qalb ko‘zi, qalb nigohi bo‘lib, “qadam” so‘zining ma’nosи qadam bosish, qaergadir borish, biror ish qilish ma’nolarini anglatadi. “Nazar bar qadam” rashhasi insonning o‘zini o‘zi nazorat qila olishga o‘rganishi, har bir qo‘yayotgan qadami nima maqsadda ekanligini anglab, tahlil etib, agar u qadam ezgulik yo‘lida bo‘lsa davom ettirish, oqibati noxush holatga olib keluvchi harakat bo‘lsa, o‘zini bu ishdan to‘xtatish, ya’ni insonning nigohi hamma vaqt qo‘yayotgan qadamida bo‘lmog‘i lozimligini talab etadi. Shuningdek, nigohning qadamga qadalgan bo‘lishi insonni kibru havodan saqlab, kamtarinlik fazilatini shakllantiradi.

Abdurahmon Jomiy o‘zining “Tuhfatul Ahror” asarida Hazrat Bahouddinga atab yozgan baytida ushbu rashhaga quyidagicha sharh beradi:

Gum zada be hamdamii hush dam,
 Dur naguzoshta nazarash az qadam.
 Baski zi xud karda ba sur’at safar,
 Boz namonda qadamash az nazar[2:26,30:34].

Mazmuni:

U hushyor bo‘lmay biror nafas olmadi, g‘aflat bilan nafas olishdan qutuldi, nazari esa doimo qadamiga qaratilgan edi. U shu qadar katta sur’at bilan o‘zligidan uzilib safar etdi, ammo qadami nazaridan ortda qolmadi. Jomiyning yuqoridagi to‘rt misrasining ikkitasi nazar tushunchasining mohiyatini ochishga bag‘ishlangan. Bu nazmiy parchadan ma’lum bo‘ladiki, Naqshbandiya ta’limotida “Hush dar dam” va “Safar dar Vatan” tamoyillarini amalga oshishida nazar tushunchasi asosiydir.

“Nazar bar qadam”ning asl mohiyati – ko‘rish, nazar quvvatlarini boshqarishni anglatadi. Bahouddin Naqshband rashhani quyidagicha sharhlaydi:

Ey, monda zi bahri ilm dar sohil ayn,
 Dar bahr farog‘at astu, dar sohil shayn.
 Bardor safi nazar zi mavji kavnayn,
 Ogoх zi baxr bosh baynul nafasayn[30:32].

Mazmuni:

Ey, ilm dengizi sohilida qarab turgan kishi,
 Dengizda farog‘at boru, sohilda yomonlik.
 Sen nazarlar safini ikki olam to‘lqinlaridan ko‘targin,

Nafaslaring orasidagi damda ham ogoh bo‘lgin.

Bu yerda dengiz – botin, mohiyat olamidir. Inson butun olamga mushohada nazari bilan, ochiq ko‘z bilan qaraydi. U tashqi olamni zohir nazari bilan kuzatadi. She’rda botinga, mohiyatga qara, chunki zohir - ya’ni sohil bu yomonlikdir. Shuning uchun sen nazarlar safini to‘lqinlardan olib, dengizga qaragin deb ta’kidlanadi. Insonning har bir nazari ibrat bo‘lishi kerak. Shuning uchun Bahouddin ta’kidlamoqdaki, “Nazarlaring safini ikki olam to‘lqinlaridan olgin”. Sarob, o‘tkinchi narsalarga qarab ko‘z nurini, ko‘rish quvvatini zoe etmagan va botin nazari bilan qaragan kishiga haqiqiy ilohiy ilm nasib etadi. U o‘zini anglab, Haqqa yetadi.

Bahouddin Naqshbandning nazar tushunchasining mazmuniga oid shunday fikri bor:

Kasrat chu nek darnigori asli vahdat ast,

Maro dar in shak nest, gar turo shak hast.

Dar har raqam bingari az ro‘i e’tibor,

Gar suratash bubini, lek modaash yak ast[30:41].

Mazmuni:

Kasratga e’tibor bilan qarasang asli vahdatdir,

Menda bunga shak yo‘q, gar senda shak bo‘lsa-da.

Har bir songa e’tibor bilan qarasang,

Surati turlicha bo‘lsa ham, asli bittadir.

Butun olam yagona asosga ega, degan fikr bilan Bahouddin Naqshband butun borliqni sevish, e’zozlab, unga muhabbat bilan nazar qilish lozim demoqdalar.

“Ruboiyoti Xoja Naqshband” asarining 47 raqamli ruboisiysida ko‘z haqidagi shunday g‘oyalar mavjud.

من دوش دعا کردم و باد آینا

تا به شود آن دو چشم باد آینا

گر چشم ترا چشم بندیش رسید

در چشم بندیش باد آینا

Man do‘sh duo kardam va bod oino,

To beh shavad on du chashm bod oino.

Gar chashmi turo chashmi badandesh rasid,

Dar chashmi badandesham bod oino[1:88].

Ruboiydag“oino” so‘zi lug‘atda yengil ma’nosini bildirganligi yozilgan. Shunga asoslanib, biz ruboyni quyidagi mazmunda tarjima etdik:

Men ko‘p duo qildim, tokim senga yengillik, oson bo‘lsin deb,

Tokim seni ikki ko‘zing yaxshi bo‘lsin va yengiliik bo‘lsin deb.

Gar sening ko‘zingga yomonandishalilar ko‘z tekkan bo‘lsa,

O'sha yomonandishalilarning ko'ziga ham yengillik bo'lsin deb.

Demak, ko'zni asrash ehtiyyot qilish uni yukini yengillashtirish doimo so'fiylar e'tibloida bo'lgan.

Sa'di Sheroyining quyidagi misralarida nazarning mazmun-mohiyati yoritilmoqda:

Bargi daraxtoni sabz bar nazari hushyor,

Har varaqash daftarest az ma'rifati Kirdikor.

Mazmuni:

Yashil daraxt yaprog'i hushyorning nazarida,

Har varag'i Alloh marifatidan bir daftardir.

Misralarning tahlili ko'rsatadiki, nazar ikki xil bo'ladi: hushyor nazar, g'ofil nazar. Hushyor kishining nazari daraxtning bir yaprog'ida ham ilohiy qudrat, quvvat, jamol va Jalolni ko'ra oladi. G'ofil bandaning ko'z oldida hijob, pardalar bo'lib, u asl mohiyatni ko'ra olmaydi.

Nazarni hushyor bo'lishi, mohiyatni anglashi uchun nima qilish kerak?! Bu savolga Najmuddin Kubroning ruboiylarining tahlili orqali javob topishga harakat qilamiz.

Najmuddin Kubroning ruboiylarini jamlagan, tarjima etgan asarlarning tahlili asosida biz nazarga oid quyidagi fikrlarni topdik.

در راه طلب رسیده میباید
دامن ز جهان کشیده میباید
بینائی خویش را دواکن زیراک
عالم حمه اوست ویده میباید

Dar rohi talab rasida meboyad,

Doman zi jahon kashida miboyat.

Binoi xeshro davo kun ziroki,

Olam hamma o'st dida miboyat[13:27].

Mazmuni:

Talab yo'lida yetishish kerakdir,

Jahondan etakni tortmoq kerakdir.

O'zingni nigohingni davo qilginkim,

Olam hamma Udir, Uni ko'rmoq kerakdir.

Shayx Najmuddin Kubroning "Jamoling menga bas" ruboiylar to'plamida bu ruboiyini Matnazar Abdulhakim quyidagi mazmunda tarjima etgan:

Tolibki, talab yo'liga tez yetmak shart,

Boshqasidan qo‘lni yuvib ketmak shart.
 Elga shifo baxsh etu och ko‘zlarini,
 Olam hama - Ul, Unga nazar etmak shart[13:26].

Insonni ruhan kamol topish tasavvufiy yo‘llaridan biri bo‘lgan Kubroviyani asoslagan buyuk mutasavvif Najmuddin Kubro ruboilari insoniyatga haq yo‘lini ko‘rsatgan. Inson o‘zini anglashi, asl mohiyatni ko‘rishi, haqiqatga yetishi uchun talab yo‘liga kirishi lozim. Haqiqatni anglash uchun ma’naviy kamolot sari harakatda bo‘lgan kishini Najmuddin Kubro tolib deb aytadi. Yuqoridagi ruboiyda tolib talab yo‘lida sobitqadam bo‘lib, maqsadiga albatta yetishiga ishonishi kerakligini Najmuddin Kubro ta’kidlamoqda. Tolib haqiqatga yetib marifatli bo‘lishi Ollohnning jamolu jalolini ko‘rish uchun nima qilish lozimligini Najmuddin Kubro ruboioyning ikkinchi misrasida yozmoqda. Mutasavvif g‘ofil bandalarga jahondan, ya’ni molu mulk dunyo va mansabning hammasiga etakni qoqib, undan ko‘ngilni uzmoq kerak deb o‘git bermoqdalar. Bu bilan Najmuddin Kubro uzlatga chekinib xilvatnishin bo‘lishni emas, balkim mol mulk va jahondagi ne’matlardan insoniyatni baqtu saodati yo‘lida foydalanish zarur demoqda. Najmuddin Kubro ruboilarini tarjima etgan Ergash Ochilov Kubroning bu ruboisi 4-raqam bilan keltirib, quyidagicha tarjima etgan:

Haq yo‘liga har lahza sa’y etmak lozim,
 Dunyodan etak tortmagu ketmak lozim.
 Didangni davola, zero, olam hamma – Ul,
 Ko‘rmak uni – asroriga yetmak lozim[11:103].

Ergash Ochilov talab yo‘lini Haq yo‘li deb juda to‘g‘ri yozgan. Chunki haqiqatga yetishni maqsad qilgan solik, ya’ni talab yo‘liga kirgan tolib har nafas, har lahza, sa’y va ko‘shish qilmog‘i lozim. Ruboioyning 2-misrasini tarjimon Matnazar Abdulhakim “Boshqasidan qo‘lni yuvib ketmak shart” deb, tarjima etgan. Ruboioyning asl forsiy tildagi nusxasida Najmuddin Kubro jahondan etak tortmoq lozim demoqda. Ergash Ochilov jahon iborasi o‘rnida moddiy olam timsoli bo‘lgan dunyo so‘zini to‘g‘ri ishlatgan. Ergash Ochilovning tarjimasi asosida tolib haqiqatga erishishi uchun bu yo‘lda hijob, parda bo‘lgan dunyoga bog‘lanishdan uzilmoq kerakligini o‘quvchiga yetkaza olgan. Bahouddin Naqshband ham shunday ta’kidlagan:

Taalluq hijob astu behosili,
 Az in bandho bigseli vosili.

Mazmuni:

Bog‘lanishlar hijobdiru xosilsizsan,
 Bu bandlarni uzib tashlasang maqsadga yetasan.

Ruboioyning 1-va 2-misrasining tahlili ko‘rsatadiki, tolibni maqsadiga yetishi uchun asosiy to‘siq uning hissiyotlari va aqlu hushini egallab olgan foni, o‘tkinchi, moddiy mol-mulk va

mansabga bog‘lanishdir. Talab yo‘liga kirgan inson butun salbiy quvvatlarni yo‘qotib, ijobiy ezgu niyat bilan maqsadi sari dadil qadam bosmog‘i lozim. Ruboiyning 3-misrasining Matnazar Abdulhakim tomonidan qilingan tarjimasi, bizning fikrimizcha, masalaning asl mohiyatini ochib bermayapti. Tarjimon shunday yozmoqda: “Elga shifo baxsh etu och ko‘zlarini”. Misraning mohiyati esa diydani, nazarni shifo ayla, ya’ni uni dunyodan uzib, asl mohiyat bo‘lgan Olloohni ko‘ra oladigan qilib tarbiyalashdir. Ammo Matnazar Abdulhakim “Jamoling menga bas” asarida ruboiyning asl nusxasini keltirib juda yaxshi ish qilgan. Ruboiyning 3-qatorda ko‘zni emas didani davolash haqida gap ketadi. Matnazar Abdulhakim elga shifo bo‘ladigan ko‘zni och deganda qalb nurini taratuvchi ko‘zni o‘ylagan. Chunki bunday ko‘zdan taraladigan nur halqqa shifodir. Ammo Ergash Ochilov tarjimasidagi “Didangni davola” degan ibora haqatga yaqinroqdir.

Ko‘z hammaga berilgan ne’matdir. Ko‘z faqat ko‘rish, anglash, ibrat olish vazifasi bilan birgalikda nazar qilish vazifasiga ham ega. Matnazar Abdulhakim nazar etmak iborasini ruboiyning 4-misrasida to‘g‘ri ishlatgan. Naqshbandiya ta’limrotida “Nazar bar qadam” – “Qadamda nazar etmoq” tamoyili bilan bu fikr uyg‘un. Qadam asl maqsadni anglatsa, nazar olamdagи har bir mavjud bo‘lgan narsa hodisaga U, yani Olloohni jamolu jalolini, kuchu quvvat hamda qudratini ko‘rmog‘i lozim. Najmiddin Kubro: “Diydangni davo qil” degan ibora bilan butun borliq U ekanligi, Uni ko‘rmoq anglamoq, siru asroriga yetmog‘i uchun didani davolamoq kerak. Nazar, nigoh qalb nurini aks ettirib, unda butun hissiyotlar, aqlu hush, fahmu farosat bo‘lishi lozim.

اى دиде توى معاينه دشمن دل
 پيوسته بياو برو خى خرمن دل
 وز دиде بروى دلبران در نگرى
 وانگاه نسى كناه برگرون دل

Ey dida, tui ma’oyana dushmani dil,
 Payvasta ba bod burdai xirman dil.
 Va zi dida ba ro‘i dilbaron darnigari,
 Va on goh nahy gunoh bar gardani dil[13:31].

Mazmuni:

Ey dida, aniq qalb dushmanisan,
 Qalb xirmmanini mudom shamolga sen sovurasan.
 Dida bilan dilbarlar yuziga qarashing ila,
 Aniq gunohni qalbning bo‘yniga solasan.

Najmiddin Kubroning bu ruboysi “Jamoling menga bas” risolasida quyidagicha tarjima qilingan:

Yov qilmishini zimmasiga ortti yurak,
Sovrilmoq uchun yelga o‘zin otti yurak.
Ko‘zginam-yey, ofatijon yuzlarga
Tushganku bu – sen... azobin tortti yurak[13:30].

Bu tarjimada nazarning noto‘g‘ri joyga tushushishi bilan qalbning dushmani bo‘lishi va unda mavjud bo‘lgan barcha ijobiy quvvatlarni ko‘kka sovurishi aniq ochib berilmagan. Holbuki, ruboiydan maqsad yomon nazarning qalbga bevosita ta’sirini ochib berishdir.

“Donishmandlar tuhfasi” asarida Najmiddin Kubroning bu ruboysi 6-raqam bilan kiritilgan va uni Ergash Ochilov quyidagicha tarjima etgan:

Ey dida, o‘zingsan begumon dushmani dil,
Sen bois uchar yelga xirmani dil.
Bas, solma nazar begona yuzlarga sira
Jurm ostida qolmasin, desang gardani dil[11:104].

Bu ruboilyarning mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, nazar noloyiq joyga tushsa qalbning dushmaniga aylanadi. Bunday nazar qalbning bor bo‘lgan ijobiy quvvatlarini qoraytiradi va uni gunohga botiradi.

Nazarning pokligi qalb ko‘zini ochishga yordam beradi. Jaloliddin Rumi bu haqda “Ko‘zni yumgin, ko‘zga aylansin ko‘ngil”, deb ta’kidlagan. Buxoroning oltinchi piri, Bahouddin Naqshbandning ustozи Said Amir Kulol shunday yozgan:

In dida bipo‘sh to dilat dida shavad,
Zi on didai dil jahoni digare dida shavad.
Gar ravzai dil ba zikri Haq bikushoi,
Dar bomi jahon har chi buvad dida shavad[14:36].

Mazmuni:

Bu ko‘zni yumgin, to qalb ko‘zing ochilgay,
Qalb ko‘zingdan boshqa jahon ko‘ringay.
Qalb eshigini Haq zikriga ochib qo‘ysang,
Jahon tomida nima bo‘lsa ko‘ringay.

Abduraxmon Jomiyning “Nazar bar qadam” tamoyili mazmun-mohiyatini ochadigan quyidagi misralari mavjud:

Sarrishtai davlat, ey barodar, ba dast or,
In umri giromi ba xasorat maguzor.
Doim hama jo, bo hama kas, dar hama hol,

Medor nuhufta chashmi dil jonibi yor[28:139].

Mazmuni:

Ey do'stim, davlating boshini qo'lga ol,
Bu qimmatbaho umringni behuda o'tkazma.
Doim har yerda, hamma bilan, hamma holatda,
Qalb ko'zingni yashirin yor tomon saqla.

XULOSA

Yuqoridagi muhokama va natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. “Nazar bar qadam” tamoyili insonni ko'rish quvvatini boshqarishga yordam beradigan Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyilidir.

2. Nazar tushunchasi tasavvuf falsafasida zohiri, ya'ni ko'z bilan ko'rish quvvati va botiniy, ya'ni qalb ko'zi bilan ko'rish quvvati degan ma'nolarni bildiradi.

3. Inson nazarini tarbiyalash asosida uni hushyor, farosat va zakovat nazariga aylantirishi mumkin. Nazarga e'tiborsizlik uni g'aflat holatiga tushirib, isonni tanazzulga olib keladi.

4. Nazar qalbning holatiga ta'sir etuvchi eng asosiy quvvatlardan biridir. Halol, pok, hushyor nazar, qalbni ijobiy quvvatlar bilan to'ldirib, qalb ko'zini ochishga yordam beradi. G'ofil nazar inson qalbiga salbiy ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. رباعیات خواجه نقشبند مرتب و شارح محمد قصوری اردو بازار لاہور الینبیہ پبلیکیشنز ۱۹۱۸۴ صحفه
2. Абдураҳмон Жомий. Тухфат ул-Аҳрор. Лакнаур: Нувиликшир, 1908. 243 б.
3. Абул Муҳсин Муҳаммад Бокир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд / Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 335 б.
4. Анвар Чориев. Инсон Фалсафаси: Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти (биринчи китоб). Тошкент: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2007. 416 б.
5. Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод (тўлдирилган иккинчи нашр). Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н Наврӯзова. Т.: “Sano standart” нашриёти, 2019. 112 б.
6. Баҳоуддин Нақшбанд. Рубоийлар. Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2023 – 84 б.
7. Баҳоуддин Нақшбанд. (Манбалар таҳлили). Тўплаб нашрга тайёрловчи, мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи. Г. Н. Наврӯзова. Т.: “Sano standart” нашриёти, 2019. 256 б.
8. Баҳоуддин Нақшбанд. Ҳикматли сўзлар. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. Ҳикматли сўзларни тўпловчи ва мақолалар муаллифи. Г.Н.Наврӯзова, Ҳикматли сўзларни инглиз тилига таржима этувчи З. Расулов. “Sadiddin Salim Buxoriy”. “Durdona” nashriyoti. 2020. 52 б.

9. Бертельс Е.Э Четверостишия Шейха Нажм ад-Дина Кубра // Суфизм и суфийская литература. Москва: 1965 С.324-328
10. Болтаев.М.Н Хўжа Абдулхолик Фиждувоний инсон дўст ҳаким, рифъат шайх. Бухоро:Бухоро, 1994.51 б
11. Донишмандлар тухфаси. Рубоийлар. Тошкент: “O’zbekiston”, 2009. 101-107.
12. Нажмиддин Кубро. Рубоийлар (Ж.Камол таржимаси) // 333 рубоий Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.49-53-бетлар
13. Нажмиддин Кубро Жамолинг менга бас. Рубоийлар // Форсийдан М.Абдулҳаким таржимаси // Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.64 б
14. Наврўзова Г.,Сафарова Н. Амир Кулол ва Баҳоуддин Нақшбанднинг тасаввуфий дунёқарашлари. Бухоро: “Бухоро”, 1996. 97 б.
15. Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Фан, 2005. – 233 б.
16. Наврўзова Г. Н Нақшбандия – камолот йўли. – Тошкент: Фан, 2007. – 189 б.
17. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд. (Рисола). Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT” нашриёти, 2011. 24 б. // 333 рубоий Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.49-53-бетлар.
18. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. – 244 б.
19. Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. 5-8-б.
20. Наврўзова Г. Шукроналик – инсон камолотининг асоси. //Imom Buxoriy saboqlari. 2023. №3. 121-123-бетлар.
21. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия таълимотида ризо тушунчаси. //Islom tafakkuri. 2022. 2-сон. 39-46-бетлар.
22. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд рубоийларида инсонни руҳий мувозанати масаласи. Interpretation and researches. Volume 1 issue 22. 30.12.2023. p.171-176.
23. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида сұхбат тушунчаси. Interpretation and researches. Volume 2 issue 1(23). 30.01.2024. p.19-22.
24. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия: Нақшдан бенақш сари йўл. Interpretation and researches. Volume 2 issue 8(30). 10.05.2024. p.219-225.
25. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд маънавий меросининг янги қирраси. //Islom tafakkuri. 2024. 1-сон. 3-7 бетлар.
26. Наврўзова Г.Н Нақшбандия – ҳушёрлик йўли. Т.: Фан, 2024. 184 б.
27. Рисолаҳои пирон ва пайравони тариқати Нақшбандия. Душанбе: 2017. 456 б.

28. Рисолаи Мавлави Жомий. Қўлёзма.17 в.
29. Салоҳиддин ибн Муборак ал-Бухорий.(1410) Анис ат-толибин ва уддат ас-соликин. Бухоро музейи 27772/11 қўлёзма 168 в.
30. Фахруддин Али Сафий. Раشاҳоту айнил-ҳаёт («Обиҳаёт томчилари»): тарихий-маърифий асар / Табдил қилувчилар, нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул мухаррир: Б.Умрзоқ (ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти). – Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004. – 536 б.